

## MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA QANDAY TURDAGI BADIY ADABIYOTLAR YARATISH KERAK?



### Abstract:

Ushbu maqolada hozirgi kunda o'zbek MTT lariida o'rgatilinib kelinayotgan badiiy adabiyotlar o'rinni olgan. Avvalgi tizimdan farqli o'laroq MTT lari tarbiyalanuvchilariga qanday turdagii badiiy adabiyotlar yaratilishi kerakligi va uning yechimlari to'g'risida so'z boradi.

### Key words:

„Ilk qadam”, bolalar adabiyoti, sistema, tizim, kompitsiysi, guruh, ertak, topishmoq, she'r, hikoya .

### Author of the article:

Jumaqulova Xumora  
Shodiyevna

### Workspace (Education subject)

Navoiy davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'l'm  
fakulteti 1-bosqich talabasi.

Ma'lumki, mamlakatimizda maktabgacha ta'l'imming davlat standartlari joriy etilgan , ya'ni maktabgacha ta'l'm tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnalogiyalariga asoslangan holda tashkil etish , bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetgazish , ta'l'm-tarbiya jarayonlarida samarali ta'l'm va tarbiya shakllari hamda usullari joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Shunday standartlardan biri bu 2022- yil nashr qilish uchun tavsiya etilgan „Ilk qadam” davlat dasturi bo'lib , O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'l'm tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi hisoblanadi. Davlat o'quv dasturi – bu balancing barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga qaratilgan bo'lib , ta'l'm va tarbiya jarayonining maqsadlari , vazifalar , tamoyillari, kutilayotgan natijalar , mazmuni va tashkil etilishi belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.Undagi maqsad va vazifalar bir yo'nalishda ya'ni maktabgacha yoshdagii bolalarga har tomonlama bo'lgan ma'lumotlarni yetgazishdir.Bola ulg'aygan sari unda tafakkur, tasavvur va shunga o'xshash ko'plab jihatlari uyg'ona boradi.Tarbiyachi tomonidan o'rgatilgan she'rlar, hikoya qilingan ertaklar, ijro etilgan qo'shiqlar o'z-o'zidan bolada badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otadi.Tarbiyachida ma'suliyat yanada oshadi, ya'ni men tarbiyalanuvchiga qanday badiiy adabiyotlar o'rgatishim kerak?Qay yo'sinda unda qiziqish kuchayadi?

Ayni vaqtida bolalar uchun ko'plab ertaklar „Velosoped haydagan qo'g'irchoq”, „Oynadagi qurbaqa” , „Mushuk va sichqon” , „Uch o'g'il”, „Cho'pon yigitcha”, „Daraxtning oyog'i” , „Aqli qarg'a”, „Qalam va sichqon”, „Oy bilan Shirin”, „Xo'roz bilan bo'ri” , „Qizil shapkacha”, „Dono qiz”, „Arslon va quyon”, „Tulkiboy” kabi bir qator ertaklar, xalq ijodi bo'l mish „Boychechak”, „Chittigul” , „Boshginam og'riydi”, kabi ohangrabo qo'shiqlar, bolalar adabiyotida salmoqli iz qoldirgan Anvar Obidjon, Po'llat Mo'min, Dilshod Rajab, Tursunboy Adashboyev kabi adiblar ko'plab ijodlar qilişgan.Bularning barchasi shu kungacha yozilgan, ijro etib kelinayotgan , MTT lari tarbiyalanuvchilariga bir xil sestemada o'rgatilanayotgan bolalar adabiyoti.Bolalar adabiyotiga alohida urg'u bersak, bolalar adabiyoti bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy , ilmiy-ommabop va publistestik asarla majmui.Bularning asosiy qismini badiiy asarla tashkil qiladi.Jahon xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi bolalar adabiyoti, tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari,rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi

# «Development of science» international conference

balalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi.Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – u o'zgaruvchan hodisa bo'lib , u kitobxon yoshi , tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq.Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlaridandir.Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik , ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan .

Biz nima uchun bir xil sistemada, bir xil tizimdamiz?Yuqoridagilarni davomi sifatida shuni aytishimiz kerakki, o'zbek bolalar adabiyotining aynan bizga ma'qul xususiyati bu uning harakatga boyligidir .Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi.U voqealarning tezkor , qiziqarli, fantaziya , yumorga boy ravishda yechilishi aytib o'tilgan.To'g'ri, bolalar adabiyotida yuqoridagilar katta ahamiyat kasb etadi.Lekin bola psixologiyasining rivojlanishi , undagi dunyo qarashning shakllanishida bixxillilik joiz emas.O'zbek bolalar adabiyoti bilan bir qatorda jahon talablariga mos bo'lgan, boringki chet mamlakatlari adabiyotidan dizayn olingan holda asarlar yaratish lozim va undan so'ng ularga mos ravishda muhit yarata olish kerak.Milliylikni uyg'unlashtirgan holatda o'zbek maktabgacha ta'lif muassasalari har birida alohida zamonaviy adabiyot xonalarini yaratish kerak.Bolalarga o'rgatilayotgan badiiy adabiyotlar qanchalik zamonaviy bo'lsa , ma'qul bo'lgan joyda, muhitda o'rgatilsa maqsadga muofiq.

„Ilk qadam“, davlat dasturi majmuida namunaviy yillik mavzuli reja berilgan.Har bir oy, hafta hamda yosh guruhlariga mos ravishda mavzular ajratilgan.Shundan kelib chiqib, oy , hafta ava yosh guruhlariga moslab, hikoya, she'r va topishmoqlar yuqorida aytib o'tganimizdek milliylikni uyg'unlashtirgan holda darsliklar yaratish.Har bir guruh tarbiyachisi uchun 3 ta darslik , ya'ni hikoya, she'r va topishmoq.Ushbu davlat dasturi kompitensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda bolaning tayanch kompitensiyalarini ochib bergenligi sababli ham undan darsliklar yaratish mumkin.Ushbu darsliklar bolalar adabiyoti xazinasi uchun ham ajoyib san'at asari bo'lib xizmat qiladi.

Chet el mamlakatlaridan andoza olingan holatda yangi badiiy asarlar yaratilishi ,MTT larida zamon talablariga mos adabiyot xonalarining bo'lishi bolalar adabiyotiga tegishli darsliklar yaratilishi va ularga yordamchi bo'luvchi uslubiy qo'llanmalar yozilishi va nashr qilinishi , Yangi O'zbekistonning ilg'or mamalakatlar qatoridan joy olishi uchun poydevor bo'lishi hech shubxasiz , deya ayta olamiz.

## ADABIYOTLAR

- 1) „Ilk qadam“ davlat o'quv dasturi.Toshkent-2022.
- 2) M.Jumaboyev „Bolalar adabiyoti” „T”-, „O'zbekiston”2002 y.